



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC instituti “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Rustamov Sherzod Raxmataliyevich

TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasida katta o'qituvchisi
Email: rustamovsh1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda transport sug'urtasini rivojlantirish mexanizmining amaldagi holati, mavjud muammolari va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tadqiq etilgan. Transport sug'urtasi bozorining iqtisodiy ahamiyati, sug'urta xizmatlari sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqot natijasida transport sug'urtasi bozorining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: transport sug'urtasi, sug'urta bozori, avtomobil sug'urtasi, yuk sug'urtasi, risklarni boshqarish, raqamli sug'urta, moliyaviy xavfsizlik.

Abstract: This article examines the current state of the transport insurance development mechanism in Uzbekistan, its current problems and future development directions. The economic significance of the transport insurance market, issues of improving the quality of insurance services, introducing digital technologies and adapting international experience to national practice are studied. As a result of the research, scientific and practical recommendations were developed to increase the efficiency of the transport insurance market.

Keywords: transport insurance, insurance market, car insurance, cargo insurance, risk management, digital insurance, financial security.

Абстрактный: В данной статье рассматривается текущее состояние механизма развития транспортного страхования в Узбекистане, его текущие проблемы и направления будущего развития. Изучается экономическое значение рынка транспортного страхования, вопросы повышения качества страховых услуг, внедрения цифровых технологий и адаптации международного опыта к национальной практике. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по повышению эффективности рынка транспортного страхования.

Ключевые слова: транспортное страхование, страховой рынок, автострахование, страхование грузов, управление рисками, цифровое страхование, финансовая безопасность.

Kirish (Введение/Introduction).

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida transport tizimi muhim o'rin tutadi. Transport infratuzilmasining rivojlanganligi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, logistika xarajatlarini kamaytirish va hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga transport faoliyatining kengayishi transport vositalari, yo'lovchilar va yuklar bilan bog'liq risklarning ortishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur risklarni minimallashtirishda transport sug'urtasi muhim iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [1].

Bugungi kunda dunyo sug'urta bozorida transport sug'urtasi eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda avtomobil sug'urtasi, yuk sug'urtasi va xalqaro tashuvlarni sug'urtalash xizmatlari sug'urta bozorining muhim segmentlarini tashkil etadi [2]. Sug'urta xizmatlarining raqamlashtirilishi, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish va telematika tizimlarining joriy etilishi transport sug'urtasi xizmatlarining sifatini sezilarli darajada oshirmoqda [3].

O'zbekistonda ham sug'urta bozorini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq transport sug'urtasi bozorida sug'urta qamrovining yetarli darajada emasligi, aholining sug'urta madaniyati pastligi va zamonaviy sug'urta mahsulotlarining cheklanganligi kabi muammolar mavjud [4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Transport sug'urtasining nazariy va amaliy jihatlarini ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Rejda transport sug'urtasini risklarni boshqarishning muhim vositasi sifatida baholab, sug'urta tizimining iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini asoslab bergan [5]. Mishkin moliyaviy institutlar faoliyatida sug'urta kompaniyalarining ahamiyatini tahlil qilib, sug'urta bozorining iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini ko'rsatgan [6].

Swiss Re Institute va IAIS tomonidan tayyorlangan hisobotlarda transport sug'urtasi bozorining global rivojlanish tendensiyalari hamda raqamli sug'urta texnologiyalarining afzalliklari yoritilgan [7; 8].

Mahalliy tadqiqotlarda esa sug'urta bozorining institutsional rivojlanishi, transport risklarini boshqarish va sug'urta xizmatlari sifatini oshirish masalalari o'rganilgan [9; 10].

Tadqiqotni usullar (Методы /Methods).

Tadqiqotda analiz va sintez, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy-mantiqiy umumlashtirish hamda SWOT tahlil usullaridan foydalanildi. O'zbekiston transport sug'urtasi bozorining rivojlanish holati xorijiy davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi hamda bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

O'tkazilgan tahlillar transport sug'urtasi bozorining rivojlanishiga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish va aholining sug'urta madaniyati sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

1-jadval.

Transport sug'urtasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Omillar	Ta'sir darajasi
Raqamlashtirish	Yuqori
Davlat qo'llab-quvvatlashi	Yuqori
Sug'urta madaniyati	O'rta
Aholi daromadlari	O'rta
Transport vositalari soni	Yuqori

Shuningdek, transport sug'urtasi bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar ham aniqlandi. Mazkur jadval ma'lumotlari O'zbekistonda transport sug'urtasi bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tavsiflaydi. Tahlil natijalariga ko'ra, raqamlashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash omillari transport sug'urtasi rivojlanishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida baholangan. Sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish orqali polislarini onlayn rasmiylashtirish, sug'urta hodisalari bo'yicha murojaatlarni elektron

tarzda qabul qilish va to'lovlarni tezkor amalga oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Natijada mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanib, sug'urta kompaniyalarining operatsion xarajatlari kamaymoqda.

Davlat tomonidan sug'urta bozorini qo'llab-quvvatlash ham transport sug'urtasi rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi, sug'urta kompaniyalari faoliyati ustidan nazoratning kuchaytirilishi hamda sug'urta xizmatlari bozorida raqobat muhitining shakllantirilishi ushbu sohaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jadvalda sug'urta madaniyati va aholi daromadlari omillari o'rta darajada ta'sir etuvchi omillar sifatida qayd etilgan. Aholining sug'urta xizmatlari haqidagi bilim va tushunchalarining yetarli darajada shakllanmaganligi transport sug'urtasi qamrovining kengayishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, aholi daromadlari darajasining o'sishi sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni oshirsa-da, ushbu omilning ta'siri boshqa omillarga nisbatan cheklangan hisoblanadi.

Shuningdek, transport vositalari sonining ortib borishi transport sug'urtasi bozorining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatda avtomobillar sonining yil sayin ko'payishi transport sug'urtasi xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni oshirib, sug'urta bozorining kengayishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, majburiy va ixtiyoriy transport sug'urtasi turlariga bo'lgan talabning ortishi sug'urta kompaniyalari faoliyatining rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar transport sug'urtasi bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, aholining sug'urta madaniyati va sug'urtaga bo'lgan ishonchining yetarli emasligi, sug'urta mahsulotlari assortimentining cheklanganligi, risklarni baholash tizimining zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligi hamda ayrim sug'urta xizmatlarining raqamlashtirish darajasi pastligi transport sug'urtasi bozorining rivojlanish sur'atlarini sekinlashtirmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish transport sug'urtasi xizmatlari sifatini oshirish, sug'urta qamrovini kengaytirish va

bozorning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval.

Transport sug'urtasi bozorida muammolar

Muammo	Natijasi
Sug'urta madaniyatining pastligi	Sug'urtalanuvchilar soni kam
Mahsulotlarning cheklanganligi	Talab qondirilmaydi to'liq
Raqamlashtirishning sustligi	Xizmat sifati pasayadi
Risk baholash tizimining eskirganligi	Tariflar noaniqligi

Tahlillar asosida transport sug'urtasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida elektron sug'urta xizmatlarini kengaytirish, telematika texnologiyalarini joriy etish, sun'iy intellekt asosida risklarni baholash tizimini yaratish va sug'urta savodxonligini oshirish zarurligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, transport sug'urtasi transport tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda transport sug'urtasi bozorini rivojlantirish uchun sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish, xalqaro standartlarni joriy etish, sug'urta mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va sug'urta madaniyatini oshirish zarur. Quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Elektron sug'urta platformalarini rivojlantirish.
 - Telematika asosidagi sug'urta mahsulotlarini joriy etish.
 - Sun'iy intellekt yordamida risklarni baholash tizimini yaratish.
 - Sug'urta savodxonligini oshirish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish.
 - Xalqaro sug'urta standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish.
- Elektron da'volarni ko'rib chiqish tizimini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. OECD. Insurance and Private Pensions Outlook. Paris, 2024.
3. World Bank. Financial Sector Development Report. Washington DC, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari.
5. Rejda G.E. Principles of Risk Management and Insurance. Pearson Education, 2021.
6. Mishkin F. Financial Markets and Institutions. Pearson, 2022.
7. Swiss Re Institute. Sigma Report. Zurich, 2024.
8. IAIS. Global Insurance Market Report. Basel, 2024.
9. Karimov A.A. O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish istiqbollari. Toshkent, 2023.
10. Rasulov B.R. Transport sug'urtasida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. 2024.